# ABDULLA ORIPOV TARJIMASIDA DANTENING “ILOHIY KOMEDIYA” ASARI POETIK SHAKLINING QAYTA YARATILISHI

**Dadajonova Durdonaxon Botirjon qizi**
Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) mutaxassisligi magistranti
Telefon raqami: +998 993276827

Ilmiy rahbar: **Karimov Obidjon Yakubjonovich**
Filologiya fanlari nomzodi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22700953

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Abdulla Oripov tomonidan o‘zbek tiliga o`girilgan Dante Aligerining “Ilohiy komediya” asari tarjimasi poetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda, xususan, asarning murakkab she’riy shakli — tertsina, qofiya va ritmning tarjima jarayonida qayta yaratilishiga e’tibor beriladi. Shuningdek, Henry Wadsworth Longfellowning inglizcha tarjimasi bilan Abdulla Oripov tarjimasi ayrim misollar asosida qiyoslanadi.
**Kalit so‘zlar:** Dante Aligeri, Abdulla Oripov, “Ilohiy komediya”, poetik tarjima, tertsina, qofiya, ritm, tarjimon mahorati, badiiy shakl, mazmun.

Tarjima san’ati xalqlar o‘rtasidagi adabiy-madaniy aloqalarni rivojlantirishda muhim vositalardan biridir. Jahon adabiyoti namunalarining milliy tillarga tarjima qilinishi orqali bir xalq boshqa xalqlarning badiiy tafakkuri, falsafiy qarashlari, tarixiy tajribasi va ma’naviy dunyosi bilan yaqindan tanishadi. Ayniqsa, she’riy asarlarni tarjima qilish oddiy mazmuniy tarjimadan farqli ravishda murakkab poetik vazifalarni ham yuzaga keltiradi. Bunda tarjimon mazmun bilan bir qatorda shakl, ritm, qofiya, ohang, obraz va badiiy ta’sirni ham imkon qadar saqlashi lozim.

Dante Aligerining “Ilohiy komediya” asari jahon adabiyotining eng yirik poetik yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Asarning murakkab falsafiy, diniy va badiiy mazmuni uning shakliy tuzilishi bilan chambarchas bog‘langan. Shu sababli uni boshqa tilga tarjima qilishda tarjimondan katta bilim, poetik mahorat va ijodiy yondashuv talab etiladi. Shuning uchun ham Abdulla Oripovning “Ilohiy komediya” ni o‘zbek tiliga tarjima qilishi muhim tarixiy hodisalardan biridir. Shoirning o‘zi ham ushbu tarjimani tarjimonlik faoliyatining eng muhim natijasi sifatida baholagan. Uning ta’kidlashicha, tarjima jarayonida ona tilining imkoniyatlarini chuqurroq anglash va undan maksimal foydalanish zarurati tug‘ilgan. “Ilohiy komediya”ning o‘zbekcha tarjimasida asarning shakl va mazmun jihatdan uyg‘unligi, poetik uslub, tertsina kabi murakkab she’riy janrning imkon qadar saqlanishi muhim o‘rin tutadi.

Poetik tarjima va shakl masalasi. Poetik tarjima boshqa turdagi tarjimalardan o‘zining murakkabligi bilan ajralib turadi. She’riy asarda mazmunni boshqa tilga ko‘chirishning o‘zi yetarli emas. Tarjimon asarning ohangi, ritmi, qofiyasi, obrazlar tizimi va estetik ta’sirini ham qayta yaratishga intiladi. Poetik tarjimaning asosiy maqsadi asl asarning estetik ta’siri, hissiyoti va badiiy go‘zalligini yangi tilda qayta yaratish bilan bog‘lanadi. Bu masala Dante asarini tarjima qilishda ayniqsa murakkab ko‘rinish oladi. Chunki “Ilohiy komediya” oddiy she’riy matn emas, balki murakkab poetik tuzilishga ega yirik asardir. Uning muhim shakliy belgilaridan biri tertsina hisoblanadi. Tertsina uch misradan tashkil topuvchi she’riy shakl bo‘lib, unda qofiyalar o‘zaro zanjirsimon bog‘lanadi. Ushbu tizim aba, bcb, cdc... shaklida, ya’ni birinchi uchlikdagi o‘rta misra keyingi uchlikning qofiyaviy bog‘lanishiga asos bo‘ladi. Demak, tertsinani boshqa tilga tarjima qilishda tarjimon oldida bir vaqtning o‘zida ikki vazifa paydo bo‘ladi: birinchisi — mazmunni aniq yetkazish, ikkinchisi — qofiyaviy va

ritmik tizimni imkon qadar saqlash. Abdulla Oripov tarjimasining e'tiborga molik jihati ham shundaki, u mazmunni saqlash bilan birga asarning uchlik shakliga ham amal qilishga intilgan. Asarining boshlanishidagi mashhur parcha bu jihatdan yaqqol misol bo'la oladi. Henry Wadsworth Longfellow tarjimasida:

*Midway upon the journey of our life*
*I found myself within a forest dark,*
*For the straightforward pathway had been lost.*[1]

Abdulla Oripov tarjimasida esa:

*Yerdagi umrimning yarmini yurib,*
*Zulmat vodiysida adashib qoldim.*
*Boqsam, bir o'rmonga ketibman kirib.*[2]

Ushbu misollarni qiyoslash Oripov tarjimasida uchlik shakl saqlanganini ko'rsatadi. Bu yerda tarjimon so'zlarni mexanik tarzda o'girish bilan cheklanmaydi. U o'zbek tilining tabiiy sintaktik va poetik imkoniyatlaridan foydalanib, uch misrali yaxlitlikni hosil qiladi. Natijada tarjima matni o'zbek kitobxoni uchun tabiiy eshitiladi. Tertsina shaklining yana bir namunasi Eriniylar tasvirida kuzatiladi. Longfellow variantida:

*And with the greenest hydras were begirt;*
*Small serpents and cerastes were their tresses,*
*Wherewith their horrid temples were entwined.*

Oripov tarjimasida esa:

*Ayolsifat edi bu uch qasoskor,*
*Lekin zulfu kokil o'rnida badxo'*
*Sahro ilonlari o'ralgan qator.*

Keyingi uchlikda esa qofiyaviy bog'lanish davom ettiriladi:

*Zulmat malikasin cho'rilari bu,*
*Ularni ustozim etdi-yu rahm,*
*Dediki: "Darg'azab Eriniylar-ku..."*[3]

Bu holat tarjimonning shaklga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Oripov uchun qofiya faqat tashqi bezak vazifasini bajarmaydi. U mazmunni badiiy jihatdan yaxlitlashtiruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Shuningdek, tarjimonning o'zbek tilidagi qofiyadosh birliklarni tanlashi natijasida asar o'zbekcha she'riy nutqning tabiiy qonuniyatlariga moslashadi. Shu sababli Dante poetikasining umumiy ruhi saqlangan holda, tarjima o'zbek adabiy-estetik muhitida mustaqil badiiy qiymat kasb etadi. Tarjimon she'rni o'zbek tiliga o'girishda uning tabiiy jaranglashiga erishishga intiladi. Buning uchun ayrim hollarda inglizcha yoki asliyatdagi birikmalarning o'zbek tilidagi bevosita lug'aviy ekvivalentidan voz kechib, poetik jihatdan mosroq variantni tanlaydi.

Masalan, Longfellow tarjimasidagi:

*O the other poets honour and light,*
*Avail me the long study and great love*
*That have impelled me to explore thy volume!*[4]

misralari Oripovda:

*Nazm ahlin xurshidi, o piri komil,*
*Muhabbatim birla va chekib zahmat*
*Ijoding uqmoqqa bo'lganman noil.*[5]

---

[1] Longfellow, Henry Wadsworth "Divine Comedy – Inferno"
[2] Abdulla Oripov "Tanlangan asarlar" III jild – G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti – Toshkent – 2001
[3] Abdulla Oripov "Tanlangan asarlar" III jild – G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti – Toshkent – 2001
[4] Longfellow, Henry Wadsworth "Divine Comedy – Inferno"
[5] Abdulla Oripov "Tanlangan asarlar" III jild – G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti – Toshkent – 2001

tarzida beriladi. Bu misolda “light” so‘zining “xurshid”, “master” mazmunidagi murojaatning “piri komil” tarzida berilishi tarjimonning o‘zbek mumtoz poetik lug‘atidan foydalanayotganini ko‘rsatadi. Tarjimon poetik shaklni saqlash jarayonida faqat qofiyaga mos so‘z qidirmaydi. U tanlangan birlikning uslubiy, tarixiy va estetik yukini ham hisobga oladi. Bu esa tarjimonning shoir sifatidagi imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liq. Chunki she’riy tarjimada bir so‘zni ikkinchi so‘z bilan almashtirishning o‘zi yetarli emas; tanlangan birlik butun misraning ohangiga, qofiyasiga va mazmuniga mos kelishi kerak. Poetik tarjimada shakl va mazmunga bir-biridan ajralgan holda qaralmasligi lozim. Abdulla Oripov tarjimasida shaklni saqlashga bo‘lgan intilish mazmunni qurbon qilish hisobiga amalga oshirilmagan. Aksincha, tarjimon zarur holatlarda shakl va mazmun o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash uchun ***ijodiy tarjima*** usullaridan foydalangan. Masalan, Longfellowning ***“river of speech”*** iborasi Oripovda ***“chashmadil”*** qo`shma sifati bilan beriladi. Shuningdek, ***“make my veins and pulses tremble”*** iborasining ***“dastidan sabr kosam ketdi-ku to‘lib!”*** tarzida berilishi ham tarjimonning mazmuniy va frazeologik muqobillikdan foydalanganini ko‘rsatadi. Bunday misollar shuni ko‘rsatadiki, Oripov tarjimasida shakl va mazmun o‘rtasida muvozanat mavjud. Tarjimon asliyatdagi ma’noni saqlash bilan birga o‘zbek tilining tabiiy va obrazli imkoniyatlaridan foydalanadi.

Abdulla Oripovning “Ilohiy komediya” tarjimasidagi asosiy xususiyatlardan biri — mumtoz o‘zbek poetik an’analaridan foydalanishdir. Dante asari XIII–XIV asrlar Yevropa madaniy muhitida shakllangan bo‘lsa, uni XX asr o‘zbek kitobxoniga yetkazish uchun tarixiy va estetik masofani hisobga olish zarur edi. Tarjimon Navoiy, Bobur, Bedil singari mumtoz adiblar tilidagi imkoniyatlarga murojaat qilib, Dante asarining tarixiy va ruhiy muhitini o‘zbek tilida qayta yaratishga intilgan. Shu jihatdan “Ilohiy komediya” tarjimasini faqat bir tildagi matnning boshqa tilga o‘girilishi sifatida baholash yetarli emas. Bu jarayonda ikki adabiy an’ana — G‘arb va Sharq poetik tafakkuri o‘zaro uchrashadi.

Shunday qilib, Abdulla Oripovning “Ilohiy komediya” tarjimasini oddiy tarjima emas, balki poetik qayta yaratish jarayoni sifatida baholash mumkin. Tarjimon Dante asarining mazmuniy mohiyatini saqlash bilan bir qatorda, uning murakkab poetik shaklini o‘zbek tilining badiiy imkoniyatlari asosida qayta yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Bu jihat tarjimaning o‘zbek adabiy tarjimachiligi va qiyosiy adabiyotshunoslikdagi ahamiyatini belgilovchi muhim omillardan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Dante Alighieri “La Divina Commedia”;
2. Longfellow, Henry Wadsworth “Divine Comedy – Inferno”;
3. G‘afurov, O Mo‘minov, N. Qambarov “Tarjima nazariyasi” – Tafakkur Bo‘stoni – Toshkent – 2012;
4. www.kh-davron.uz
5. Google tarjimon.
6. 6. Abdulla Oripov “Tanlangan asarlar” III jild – G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti – Toshkent – 2001;